

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafu Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odiraxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odirakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Нозлия Нормуродова

Теоретические вопросы антропоцентризма в контексте развития современной лингвистической науки.....6

Muqaddas Abdurahmanova

O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektida tadqiq etish asoslari.....26

Elçin İbrahimov

Günümüzde Türk Devlet ve Topuluklarında Ortak İletişim Dili Sorunu...44

Eldar Asanov

Turk-run bitiklari ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo turklarida ijtimoiy status, ijtimoiy notenglik va xotira kategoriyalarini tushunish manbasi sifatida.....57

Hasamuddin Hamdard

Afg'oniston o'zbek tili va adabiyotiga matbuotning ta'siri.....77

Adabiyotshunoslik

Oybarchin Abdulhakimova

Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan mushtarakligi.....85

Mahira Hajiyeva

Ufq tushunchasi hamda adabiyotda utopik va distopiya tushunchalarining kesishishi.....100

Sotsiologiya. Psixologiya

Sabohat Kalanova

O'zgaruvchan jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining differentsiatsiyasi.....112

Tarix. Manbashunoslik

Azizullah Aral

Qadim Xurosondagi Navoiy obidalarining bugungi ko'rinishi.....124

CONTENT

Linguistics

Nozliya Normurodova

Theoretical Issues of Anthropocentrism in the Context of the
Development of Modern Linguistic Science.....6

Muqaddas Abdurahmanova

Basics of Research of Lexical Homonyms in the Uzbek and Turkish
Languages in the Linguocognitive Aspect.....26

Elchin Ibrahimov

The Problem of Common Communication Language in Turkish
State and Community Today.....44

Eldar Asanov

Old Turkic Inscriptions as a Source for Understanding the
Categories of Social Status, Social Inequality, and Memory
among Early Medieval Turks in Central Asia.....69

Hasamuddin Hamdard

The influence of the Press on the Uzbek Language and Literature of
Afghanistan.....77

Literature

Oybarchin Abdulhakimova

The commonality of Abdulla Oripov's lyrical Conception with the
literary-aesthetic environment.....87

Mahira Hajiyeva

Concept of Horizon and the Intersection of Utopian and Dystopian
Visions in Literature.....100

Sociology. Psychology

Sabohat Kalanova

Differentiation of Processes of Generational Exchange in a
Changing Society.....112

History. Source studies

Azizullah Aral

Today's View of Navoi Monuments in Ancient Khorasan.....124

O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektda tadqiq etish asoslari

Muqaddas Abdurahmanova¹

Abstrakt

Maqolada o'zbek va turk tillaridagi omonimlarni lingvokognitiv aspektda o'rganish asoslari yoritilgan. Dunyo tilshunosligida omonimiyaga doir tadqiqotlarning, asosan, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigma asosida o'rganilgani qayd etilgan. Tildagi omonimiya hodisasi talqinida turlicha yondashuvlar, o'zaro zid qarashlarning mavjudligidan qat'i nazar omonimiya hodisasining til o'zlashtirishda, voqelikni, fikrni yashirin tarzda ifodalashda va badiiy matnda turli xil ma'nolarni anglatishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Antroposentrik paradigma tilni undan foydalanuvchilarning qiziqishi, dunyoqarashi, tafakkuri, idroki asosida o'rganishi qayd etilib, omonimiyaning shaxs tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Xorij tilshunosligida omonimlarni antroposentrik tadqiq qilishga qaratilgan izlanishlar tahlil qilinib, o'zbek va turk tillaridagi omonimlarni lingvokognitiv yo'nalishda tadqiq etishning nazariy asoslari mavjudligi ko'rsatib berilgan. O'zbek va turk tillaridagi omonimik qatorlarda ifodalangan lingvokognitiv xususiyatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *omonim, omonimiya, leksik omonim, omonimik qator, dominant, mental omonim qiyosiy-tarixiy paradigma, sistem-struktur paradigma, tuyuq, askiya, ta'rix, tajnis, iyhom, lingvokognitiv xususiyatlar, antroposentrik paradigma.*

Kirish

Jahon tilshunosligida omonimlar muayyan til doirasida va tillararo muammo sifatida tadqiq etilgan. Bir til dorasidagi tadqiqotlarda lingvistik yo'nalish ustunlik qiladi [Боронина 1964, 155; Барановская 1969, 295]. Sinxron aspektdagi izlanishlarda omonimlarni leksik-semantik, struktur-grammatik jihatdan tahlil

¹Muqaddas Abdurahmanova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: Mabduraxmanova20@gmail

ORCID ID: 0009-0004-6987-3501

Iqtibos uchun: Abdurahmonova, M. 2024. "O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektda tadqiq etish asoslari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 26 – 43.

qilish yetakchilik qiladi [Bogdanova 2004]. Omonimlar leksik, grammatik xususiyatlar va soʻz yasaliş jarayoni mahsuli sifatida tahlil etilgan [Tabutarova 2013]. Tadqiqotlarda omonimlarning shakllanish omillari yoritilgan, polisemiya hodisasiga munosabati [Nikutayeva 2003], badiiy-stilistik imkoniyatlari oʻrganilgan. Omonimlar kompyuter lingvistikasi yonalishida ham tahlil etilgan.

Omonimlar bir xil talaffuz qilinuvchi, ammo mutlaqo har xil maʼnoga ega boʻlgan soʻz va soʻz shakllaridir. A.A. Shaykeyevich omonimlar termini ostida soʻz va soʻzshakllarini nazarda tutgan, maʼno strukturasi leksik maʼnodan tashqari grammatik maʼnoni ham eʼtiborga olgan [Shaykevich 1959, 127]. Bir tizimdagi tillar doirasidagi izlanishlarda hodisaning umumiy va farqli jihatlari, tillararo hodisa sifatida namoyon boʻlishi, yondosh tushunchalarga munosabati, leksik-semantik xususiyatlari tahlil etilgan [Barzilovich 1972, 125].

Omonimiya hodisasi va omonimlar talqini turkologiyaning asosiy masalalaridan biri boʻlib kelgan. Moʻgʻul tillari va turkiy tillar sintaksisidagi omonimlik oʻrganilgan. Turkiy tillarning omonimlik xususiyatlari qiyosiy aspektida tavsiflangan. Qozoq, chuvash, boshqird, qirgʻiz, tatar, turkman, ozarbayjon, tuva, xakas, yoqut, qoraqalpoq, noʻgʻay, qoʻmiq tillaridagi omonimlar tadqiq etilgan.

Omonimlarga bagʻishlangan tadqiqotlarning aksariyati lingvistik aspektidagi tahlillar asosida amalga oshirilgan boʻlib, hodisaning mohiyatini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

Omonimlarning tildagi oʻrni va lingvokognitiv yoʻnalishdagi tadqiqotlar

Omonimiya muammosi tilshunoslik ilmi qa qar qadimiydir. Baʼzi tilshunoslar omonimlarni tilning lugʻat boyligi deb bilsa, boshqalari omonim bu «tilning nuqsoni» (A.A.Reformatskiy, A.N. Gvozdev) deb bilishadi. L.A. Bulaxovskiy, O.S. Axmanova, R.A. Budagov kabi tilshunoslar omonimiyani tan olishgan, hatto baʼzi hollarda nutqni yoki matnni tushunishni qiyinlashtirsa-da, unga til nuqsoni sifatida qarashmagan. Omofon va omograflar omonimning turi yoki omonimga yondosh soha sifatida qaralgan [Golovin 2007].

Tildagi omonimiya hodisasi, uning muloqotdagi oʻrni, kommunikatsiya jarayonidagi vazifasi olimlar tomonidan turlicha baholangan. Xususan, I.S.Logacheva olimlarning omonimlar haqidagi qarama-qarshi fikr va baholarini tahlil qilgan. Omonimlarning tinglovchiga qiyinchilik tugʻdirishi sabab tildagi nuqson sifatida qaralgani, muloqot uchun “samarasiz” deb baholangani, matnni

idrok qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda retsiyentning vaqtga reaksiyasi cho'zilgani asosida muloqot jarayonini sekinlashtiradi, deb xulosa qilingani qayd etilgan. O'z navbatida, fikr ifodasidagi o'rni nuqtayi nazaridan omonimiyaning polisemiya kabi so'zlovchi uchun samarali ekanligi, tilning ixchamligini ta'minlaydigan ijobiy hodisa sifatida baholangani, omonim, omofon, omoshaklning muloqotda qiyinchilik tug'dirmasligi, doimo nutqiy vaziyat va kontekstda neytrallashuvi haqidagi fikrlar keltirilgan [Logacheva 2009, 55]. Bu o'rinda omonimlarni tildagi "samarasiz va ortiqcha" deb baholagan qarashlar til hodisalariga yuzaki yondashishning bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaymiz. Negaki tilshunoslar qayd etganlaridek, tilda ortiqcha yoki samarasiz hodisa bo'lmaydi. Har bir til hodisasi nutq jarayoni mahsuli sifatida ma'lum bir lisoniy omil va lingvistik, mantiqiy maqsad asosida shakllanadi. Dunyo tillarining aksariyatida omonimiya hodisasi mavjudligi, muayyan tilning ichki taraqqiyot omillari va boshqa tillar ta'sirida yuzaga kelishi bu hodisaning lingvistik qonuniyatlar asosida shakllanishi hamda kommunikatsiya jarayonida turli funktsiya bajarishini ko'rsatadi. Ch. Davlyatova "til belgisining assimetriyasi, ya'ni ifoda plani bilan mazmun plani o'rtasidagi umumiy tafovutlar tilning "nomukammal tuzilishi" natijasi emas, balki muqarrar va zaruriy hodisa bo'lib, ularsiz tabiiy inson tili me'yoriy holatda namoyon bo'lmasligi va rivojlana olmasligini qayd etgan [Davlyatova 2017].

Omonimiya borasida olib borilayotgan tadqiqotlarning ma'lum bir qismida lingvokognitiv, psixolingvistik tahlillar kuzatiladi. Bu esa tildagi omonimiya hodisasining muloqot vositasi taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatish bilan bir qatorda, til sohiblarining tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlashga ham xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida og'zaki omonimiya tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar mavjud. Tadqiqotlarda mahalliy tillarni o'rganishga bo'lgan talabning yuqori ekanligi qayd etilgan. Mahalliy tillardan biri sifatida Sumatra Utara provinsiyasi janubidagi turli hududlarda uchraydigan mandailing mintaqaviy tili qayd etilgan. Mandailing tilidagi omonimiya shakli, omonimiya munosabatlari yoritilgan. Ma'lumotlar Labuhanbatu, Sungai Kanan tumani, Batang Gogar qishlog'idagi o'troq aholi og'zaki nutqidan olingan. Ma'lumotlarning to'g'riligi turli xil adabiyotlardan havolalar berish orqali isbotlangan. Mandailing tiliga oid bir xil shakldagi mustaqil morfemalar, omonimiya shaklidagi kompleks shakl, ya'ni murakkab

morfemalar o'rganilgan [Rodiyah Harahap 2020, 50].

Omonimlar ma'lum bir hissiy, aqliy jarayonlar yoki voqea-hodisalarga miya javob reaksiyasini o'rganuvchi yo'nalish usullari yordamida ham tahlil qilingan.

Anna Yurchenko yetakchiligida amalga oshirilgan tadqiqotda ko'p ma'noli va omonim so'zlar turlicha qayta ishlangani, ammo so'zlarni qayta ishlash mexanizmlari hali ham aniq emasligi qayd etilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi metonimiya, metafora va omonimlarni tushunish jarayonini o'rganishga qaratilgan. Tajriba sifatida ishtirokchilardan ikki so'zdan iborat va omonim tarkibli birikmalarni o'qish so'ralgan. Natijalarda ko'p ma'noli so'zlarning metonimik va metaforik ma'nolarini tushunish o'rtasida farq kuzatilgan. Metonimik va literal sezgilar o'rtasidagi birlamchi ta'sir mental leksikada yagona ifodaga ega, degan fikr tasdiqlangan. Bundan farqli ravishda, polisemantik so'zlarning majoziy ma'nolari so'zlarning asl ma'nolariga juda cheklangan birlamchi ta'sir ko'rsatishi, xuddi shunday natijalar omonimlar uchun ham xos ekanligi ta'kidlangan. Tadqiqotchilar metaforik ma'nolar mental leksikonda alohida ifodalarga ega bo'lishi kerak, degan xulosaga kelishgan [Yurchenko, <https://ssn.com>].

Xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlarda omonimiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish usullari ishlab chiqilgan. Imlo o'zgarishlari tilni qayta ishlashda muammolarga olib kelgan til, ya'ni yapon tili misolida omonimlarni ajratib turadigan va omofonlarni birlashtirgan so'z ma'nosini klasterlash usuli taqdim etilgan. Tokenlarni alohida semantik guruhlariga klasterlash uchun matnli (kontekstli) tartiblash usulidan (BERT) foydalanilgan. Bu usuldan sinonimik misollarni bitta tasviriy shaklga solish uchun ham istifoda etilgan. Bu normallashtirishning ahamiyatini til modelida ham, transliteratsiyada ham ko'rish mumkin [Kevin 2020].

Omonimiya va polisemiya o'rtasidagi farq, so'z ma'nosini aniqlash texnik imkoniyatlar va amaliy tajribalar yordamida amalga oshirilgan. So'zlarni omonim yoki ko'p ma'noli deb tasniflash, so'z semalarining grafiklarini tugunlar va ular orasidagi semantik bog'liqlikni alohida qirralar sifatida tasvirlash haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy omonimlar bazasini yaratish, shuningdek, mavjudlarini yangilash masalasi ko'tarilgan. Ma'lumotlar bazasi omonimlar ro'yxatini va ularning qisqacha ta'riflarini o'z ichiga olishi, ular WordNetning tegishli qidiruv tizimlarida ko'rsatilganligi qayd etilgan. Omonim va ko'p ma'noli so'zlar to'plami nisbatan baholanishi va ishlab chiqilgan usullar omonimlar miqdorini

aniqlashda eng samarali natijalarga olib kelishi asoslangan [Habibi 2020].

Omonimlar tarjimasini bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Talabalarning foydalanish paytida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan biri sifatida omonimlarni ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilish masalalari o'rganilgan. Ikki tilli lug'at yordamida omonimlarning passiv tarjimasini, ya'ni ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilish jarayonlarida uchraydigan muammolar yechimi, ikki tilli lug'atdan foydalanish shartlari tavsiflangan. Tarjima jarayonida talabalar foydalanadigan strategiyalar anketa usulida aniqlangan. Ikki tilli lug'atdan foydalanish samaradorligi test asosida baholangan. Natijalar omonimlar uchun yetarlicha ekvivalentlar taqdim etmagani sababli ikki tilli lug'atlarning omonimlar tarjimasida har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermasligi ko'rsatilgan. Bunday lug'atlar bilan ishlashda talabalar kontekst mazmuniga kirishmagani va so'zma-so'z tarjimaga ergashgani qayd etilgan.

Tadqiqotlarda omonimiyani o'rganish leksik semantikaning asosiy muammolarini hal qilish uchun juda muhimligi qayd etilgan. Omonimlarning tarjima, jonli nutq va hissiy klasterlar kontekstida o'ziga xosliklarini tavsiflovchi farazlar taklif qilingan. Gipotezalarni sinab ko'rishga imkon beruvchi yangi izohli omonimlar resursi taqdim etilgan (WSD resurslari). Bu resurslar omonimiy va polisemiyaning farqlash uchun o'ziga xos qadamdir [Bradle 2020, 7902].

Tadqiqotlarda maktabgacha va boshlang'ich maktab o'quvchilarining omonimlarni o'rganish va tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi alohida ta'kidlangan. Alohida xaritalashning qiyinligi yoki metalingvistik ko'nikmalarning yetishmasligi omonimlarni o'rganish va aniqlashni qiyinlashtirishi aytilgan. Omonimlarni aniqlash yuzasidan tajribalar o'tkazilgan. Tajribada jami 60 nafar uch yoshli bolaning omonim juftlarini tanlash qobiliyati va ularning omonimlar umumiy belgiga ega bo'lsa-da, ikki xil ma'noni ifodalashini tushunish darajasi o'rganib chiqilgan. Tajriba jarayonida subyektlardan omonim juftlarini aniqlash so'ralgan. 2-tajribada omonim juftliklari va omonim bo'lmagan juftliklar belgilangan, so'ngra bolalardan bu juftliklar bir xil shaklga ega egamasligi va ular bir xil narsa yoki bir xil narsa emasligini aytish talab qilingan. Tajribada bolalarga bir nechta omonim va omonim bo'lmagan juftlardan har birining yarmi ko'rsatilgan, so'ngra rasmlar to'plamidan nom va toifa mosligini aniqlash so'ralgan. Ushbu tajribalardan bolalar omonim juftlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan metalingvistik ko'nikmalarga egaligi; bundan tashqari,

omonimlar ikki xil kategoriyani ifodalashini anglab yetganliklari aniqlangan.

Tadqiqotlarda polisemiya va omonimiya tushunchalari farqlangan. Xitoy tilida polisemiya va onomimiyaga bo'lgan munosabat lug'atlar orqali ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda ma'no va assotsiatsiyalarga boy so'zlar va xitoyliklar duch keladigan ba'zi muammolar tahlilga tortilgan. Ko'p ma'noli inglizcha so'zlar sxemalar shaklida tasvirlangan va bu kabi so'zlarning aqliy leksikondagi shakliiy tuzilmasi taxminiy ravishda ko'rsatib berilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda omonimlardagi dominant belgilar ajratilgan. Bu holat omonimning qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Omonimlar bilan bog'liq assotsiatsiyalar o'rganilgan.

Bark is found on the trunk of many trees (*Bark* ko'p daraxtlarda topilgan). *Bark* so'zining dominant ma'nosi kuchukning "vovillashi", lekin bu gap keltirilganda til egasi hech ikkilanmasdan uning kam ishlatiladigan ma'nosi "o'simlikning qattiq qobig'i" haqida o'ylashi, aynan ushbu kontekstda shu ma'noning dominantga aylanishi qayd etilgan.

Tadqiqotlarda so'z assotsiatsiyalari o'rganilgan, masalan, *shar* so'zi alohida keltirilganda xayolga darhol "geliy" va "uchish" so'zlari keladi. Lekin, *The entertainer filled the balloon from the gas cylinder and inhaled it to make her voice squeaky* / "Masxaraboz ovozi kulguli qilish uchun sharni gaz silindirda shishirib, undan nafas oldi" gapida *geliy* assotsiatsiyasi birinchi navbatda xayolga keladi. Bu o'rinda matnning omonimlar ma'nolarini aniqlashtirish vazifasi yoritilgan.

Omonimlarni farqlashning BERT modeli keltirilgan, omonimlar BERT yordamida aniqlangan va tekshirilgan. Bu model omonimlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlashda ishlatilgan. BERT-so'zga ma'no jihatdan yaqin so'zlarni aniqlovchi model. Modelga gap kiritilgan va undagi har bir so'zga yaqin ma'nodagi so'zlar keltirilib, omonimlarning ma'nosi aniqlangan.

Xorijiy tadqiqotlardagi tajribalardan biri omonimlarni o'rganish jarayonidagi aniq faraz (gipoteza)ni tasdiqlashga qaratilgan.

Birinchi faraz: bolalar omonimlardan qochadi, chunki bir so'z bir ma'noga ega, degan qarashni ma'qullashadi.

Ikkinchi faraz: bolalar o'zlari omonim yig'adi va hatto kattalar lug'atida bo'lmagan omonimlar ham yaratadilar.

Uchinchi faraz: So'z o'rganishda omonimlarning ta'siri mavjud emas.

Tajriba ushun 28 nafar o'quvchi olingan, o'quvchilarga 8 ta ma'lum va 8 ta yangi so'z berilgan. Misollar keltirilmagan, lekin o'quvchilarning aytib bergan hikoyalaridan yaratilgan yangi gaplar orqali matn (kontekst)ni bilish chastotasi o'rganilgan. Masalan, 8 ta ma'lum so'z yangi so'zlar bilan birlashtirilib, multfilm shaklida qo'yib berilgan. Keyin bolalar, rasm orqali savol-javob qilingan va agar ular tegishli so'zni ayta olsa, to'g'ri deb hisoblangan. Natija shuni ko'rsatganki, omonimlarni o'rganish yangi so'zlarni o'rganishdan osonroq bo'lgan. Ikkinchi faraz tasdiqlangan.

Tadqiqotlarda omonimiyaning so'zlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil etilgan. Omonimlarning yangi so'zlarga qaraganda tezroq o'zlashtirilishi asoslangan. Ma'lum fonologik shakllarning so'zlarni o'rganishni osonlashtirishi qayd etilgan. O'quvchilar shakl ma'lum ekanligini va bu, o'z navbatida, fonologik ishlov berish (shaklni o'zlashtirish) jarayonini qulaylashtirishi va natijada so'zni o'rganish ham tezlashishi aniqlangan. O'quvchilarning so'z o'rganishda omonimiyadan qochishi yoki o'xshash shakllarni moslab ololmasligi aytilgan. So'z o'rganishning boshlanishida omonimlarni o'zlashtirish qiyinligi, lekin keyinchalik shakl bir xilligi yordamida oson o'zlashtirilishi dalillangan [Holly 2004].

Izlanishlarda flektiv paradigmalarni modellashtirish bo'yicha takliflar berilgan bo'lib, omonimlardagi tizimlilikni baholashning aniq mezoni belgilab berilgan. Asosan Hind-Yevropa va Afrika-Osiyo aholisi tiliga moslashtirilgan modellarning bitta flektiv til ichidagi tizimli omonimlarni modellashtirishda adekvat o'lchov vazifasini bajarishi qayd etilgan.

Omonimlarni aniqlashning uch omili asosida tajriba o'tkazilgan: 1. Lug'at boyligi. 2. Grammatik savodxonlik. 3. Oldingi bilimlarga asoslanish.

Tadqiqot 30 ta ingliz tili asosiy fani bo'lgan talabalar orasida o'tkazilgan. Shug'ullanish uchun 60 ta omograf va omonimlar tanlangan (ingliz lug'atida eng ko'p uchraydiganlari orasidan). Dastlabki mashg'ulotda bo'lmagan boshqa 20 ta omonim va ikkita savol-javob testlari (omillarni aniqlash uchun) ham taqdim qilingan. Yangi so'zlar lug'ati omonimlarni o'zlashtirishning eng muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

Omonimlarni o'zlashtirish 6 bosqichli metodologiya asosida tekshirilgan:

1-bosqich: talabalarning to'g'ri omonimni tanlash qobiliyati bo'yicha test o'tkazilgan.

2-bosqich: omonimlarni o'zlashtirish omillarini o'rganish bo'yicha savol-javob amalga oshirilgan.

3-bosqich: talabalarga asoslovchi ko'rsatmalar bilan dalillash o'rgatilgan.

4-bosqich: omonimlarni o'zlashtirish bo'yicha qayta test o'tkazilgan.

5-bosqich: 2-bosqich qayta o'tkazilgan.

6-bosqich: tadqiqotga munosabat baholangan [Laongphol 2013, 33].

Ushbu tadqiqotlardan shu xususiyat ma'lum bo'ladiki, xorij tilshunosligida omonimiya hodisasini har xil baholash holatlari mavjud. Shunga qaramay, omonimlarni til hodisasi sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur paradigмага asoslangan tadqiqotlarda omonimlarning tavsifi keltirilgan, ko'rinlarishlari tasniflangan, yuzaga kelish omillari ko'rsatib berilgan. Antroposentrik yo'nalishdagi tadqiqotlar omonimlarni psixolingvistik, lingvokognitiv jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Lingvokognitiv yo'nalishdagi tadqiqotlarda omonimlarning ifoda etilishi, tushunilishi, omonimlarni o'zlashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'zbek va turk tillaridagi omonimlarning lingvokognitiv xususiyatlari

Turkiy tillar, xususan, o'zbek va turk tillari leksik omonimlar eng ko'p uchraydigan muloqot vositalari sanaladi. Turkiy tillarda omonimlar tuyuq, askiya janrlariga asos bo'lgan. Turli so'z o'yinlari, tajnis, iyhom san'atlarini yuzaga keltirishda omonimlar lingvistik omil vazifasini o'tagan.

O'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda omonimlarga psixolingvistik, kognitiv jihatdan yondashilgan o'rinlar kuzatiladi. Sh. Shoabdurahmonov omonimiyani tildagi ijobiy hodisa sifatida baholagan [Шоабдурахмонов 1980, 111]. H.Jamolxonov omonimlarning chuqur fikr yuritishga yordam berishini qayd etgan [Жамолхонов 2005, 167]. Sh. Rahmatullayev o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib omonimiyaning turlari, shakllanish jarayoni haqida ilmiy asosda fikr bildirgan. Shu bilan bir qatorda, omonimiyaning inson miyasi, qabul qilish darajasi bilan bog'liq hodisa ekanligiga e'tibor qaratgan. Xususan, omonimiyaning so'z birikmasi, kontekst yordamida bartaraf etilishini birinchilardan bo'lib qayd etgan: "...omonimning yolg'iz o'zi bilan gapshakl tuzib, fikr anglatish kamdan kam uchraydi.

Matn esa, odatda, omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi” [Раҳматуллаев 2006, 44]. Hozirgi kunda jahon tilshunosligida, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter lingvistikasida kollokatsiydan, ya’ni so’z ma’nolarini birikmalar orqali aniqlash usulidan keng foydalanilmoqda. Kollokatsiy usuli so’z ma’nolarini birikmalar, aniqrog’i, matn yordamida aniqlashtirishga qaratilgan. Sh.Rahmatullayev omonimlarning psixolingvistik, kognitiv xususiyatlari haqida yana shunday deydi: “Nutqda ikki xil tushunilishi mumkin bo’lgan holatlarga ba’zan ongli ravishda yo’l qo’yiladi, shu asosda so’z o’yini hosil qilinadi. Buni omonimiyadan qisman bo’lsa-da ijobiy foydalanish deb baholash kerak” [Раҳматуллаев 2006, 47]. Olim omonimiyadan, tuyuq, askiya janrlarida maqsadli foydalanilishini qayd etgan.

Mumtoz adabiyotdagi so’z o’yinlari, tajnis san’ati, iyhom san’ati fikr rivojini ta’minlaydi. Tajnis aytilishi, shakli bir xil, ammo ma’nosi har xil so’zlardan foydalanish turkiy xalqlarning Alisher Navoiy aytgan “tez fahm, baland idroklik” xususiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Omonimiya hodisasining nazariy asoslarini yaratgan, uning tafakkurni o’stirish, fikrni rivojlantirish omili sifatidagi qiymatini birinchilardan bo’lib ilmiy jihatdan asoslagan Alisher Navoiy turkiylarning badiiy so’z san’ati, tajnis va iyhomni ko’p qo’llashlari haqida yozgan. So’z o’yinlarining turkiy tillarda sart tilidan ko’proq ekanligini qayd etgan. Tajnisga asoslangan tuyuq janrining faqat turkiy xalqlarda uchrashini ta’kidlagan: “*Yana she’rda barcha tab’ ahli qoshida ravshan va majmu’ fusaho ollida mubarhandurki, tajnis va iyhom bag’oyat kulliydur. Va bu farxunda iborat va xujasta alfoz va ishoratda forsadin ko’proq tajnis omiz lafz va iyhom angez nukta borki, nazmg’a mujibi zeb va ziyinat va boisi takalluf va san’atdur... ham turk shuarosi xos sasidurki, sartda yo’qtur va muni tuyuq derlar*” [Muhokamat ul-lug’atayn, 2011]. Tuyuq janri va uning asosi bo’lgan tag ma’no, bir xil shakl botinida yashiringan turfa ma’no-mazmunlar turkiy xalqlarning zehni, aql-idroki, zukko tabiati bilan bog’liq. Turkiy xalqlar poetik ijodiga xos askiya, tuyuq janrlari, topishmoqlar, tajnis va iyhom san’atlari, so’z o’yinlari yuksak darajadagi tafakkur mahsullari hisoblanadi [Xolmanova 2021, 58].

Alisher Navoiy tuyuq janri va tajnis san’ati xususiyatlarini “Mezonu ul-avzon” asarida ham ta’kidlagan: Va bu ikki baytki, tajnisi tomdu, ham turk shuarosi xos sasidurki, sortda yo’qtur va muni tuyug’ derlar. Va muning ta’rifin “Mezonul-avzon” otlig’ aruzga bitilibdur, anda qilinibdur” [Muhokamat ul-lug’atayn 2011, 58].

Navoiy tuyuq janri, tajnis san'ati xususiyatlarini tasvirlash bilan bir qatorda, tuyuqning betakror namunalarini keltirgan. Uning tuyuq yaratishdagi mahorati olimlar tomonidan ham e'tirof etilgan: "Ayniqsa, she'riyatda eng qiyin san'at tajnis va iyhom bo'lib, shoir bir so'zni ikki ma'noda qo'llaydi va ikkinchi ma'nosi – yashirin qirrası o'ta ta'sirchan yoki muhim bo'ladi. Bu hodisa fors adabiyotiga ham yot emas, albatta. Ammo o'zbek tilidagidek bir so'zni uch-to'rt ma'no ifodasiga yaraydigan tom tajnislik holati forsiyda deyarli uchramaydi. Navoiy bunga **ot**, **it**, **o't** kabi so'z tajnislari asosida yaratilgan tuyuqlarni misol sifatida keltirgan [Ibragimova, 2021; 180]. Masalan, **ot** so'zini misol keltirib, shunday izoh bergan: "ot lafziki, bir ma'nisi *alamdur*, yana bir ma'nisi markabdur va yana bir ma'nisi *amrdurki*, toshni yo o'qni *ot*, deb buyurg'aylar" [Muhokamat ul-lug'atayn, 2011].

O'zbek va turk tillarining bir til oilasiga mansubligi omonimlarda ham kuzatiladi. Bir qator omonimlar qator hosil bo'lishi va ma'nosiga ko'ra har ikki tilda bir xil qo'llanadi:

ot+fe'l omonimligi: **aç I** yemek yemesi gereken; "oziqsiz" – **aç II** açmak fiilinin emir kipi; "buyruq maylidagi fe'l"; **düş I** rüya "tush" – **düş II** düşmek mastarından emir kipi; "yiqilmoq" (buyruq shakli);
sifat+sifat omonimligi: **açik I** kapalı olmayan; "ochiq" – **açik II** koyu olmayan renk; "och rang". Lekin bunday so'zlar ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Omonimik qatorlarda farqli jihatlar ko'p kuzatiladi.

O'zbek tilida omonim bo'lmagan so'z turk tilida omonim hisoblanadi:

el I bir organımız "qo'l" – **el II** yabancı; "begona" – **el III** ülke; "yurt".

O'zbek tilida mazkur omonimik qatorda keltirilgan "el, yurt" ma'nosidagi **el III** leksemasi qo'llanadi; faqat o'zbek tilida "yurt" semasi emas, "xalq" ma'nosi ustun hisoblanadi. "Yurt", "xalq" o'zaro aloqador tushunchalar bo'lgani sababli ba'zi hollarda "xalq" ma'nosi anglashiladi. Bu ma'no ko'proq xalq dostonlarida kuzatiladi. O'zbek tilida "do'st" ma'nosidagi **el** so'zi ham ucraiydi. Ammo bu so'z mustaqil qo'llanmaydi, "do'st bo'lmoq" ma'nosidagi **el bolmoq** frazemasi tarkibida keladi;

kışlamak I (*nsz*) 1. Qish kelishi 2. Kışı bir yerde geçirmek: 2. Qishlamoq – **kışlamak II** (*-i*) *hlk*. "kish-kishlamoq". O'zbek tilida faqat "faslni o'tkazish" ma'nosidagi **qishlamoq** so'zi ishlatiladi;

köklemek I ağaç veya bitkiyi kökü ile birlikte topraktan çıkarmak, kökertmek; "ko'kartirmoq" – **köklemek II** sazı kurmak;

“sozlamoq”. O‘zbek tilida daraxtning ildiz otib ko‘karishiga nisbatan *ko‘klamoq* so‘zi qo‘llanadi. O‘zbek shevalarida esa “katta-katta qilib tikmoq” ma‘nosidagi *ko‘klamoq* fe‘li uchraydi.

O‘zbek tilida paronim hisoblangan leksemalar turk tilida omonimik munosabatga kirishadi. Bunda so‘zning yozilishi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Ushbu so‘zlarning o‘zbek tilidagi talaffuzi ham o‘xshash, ammo leksik birliklar yozilishi bilan farq qiladi: *amr* – buyruq, *amir* “mansab-martaba”. Bu so‘zlarni paronim sifatida baholash ham nisbiy. Nisba ma‘nosidagi *amir* so‘zi o‘zbek tilida hozirda iste‘moldan chiqqan. Turk tilida *amir* bir xil talaffuz etilgani va bir xil yozilgani sababli omonimiya munosabatini yuzaga keltiradi:

emir I buyruk, komut, talimat, ferman; “buyruq, amr, farmon”;

emir II orta Anadolu‘da sharap yapımı için üretilen, orta kalın kabuklu, beyaz renkli, kısa ve karışık budanan bir tür üzüm; “uzum turi”. Turk tilida “uzum” ma‘nosini anglatgan *emir II* so‘zini o‘zbek tilida nisbani bildirgan *amir* so‘ziga bog‘lash mumkin. O‘zbek tilida uzunning “husayni” deb nomlangan turi mavjudki, uning etimologiyasini ham *amir* so‘ziga bog‘lash mumkin. Bu o‘rinda so‘z etimologiyasidagi madaniy belgilarga ko‘ra o‘zbek va turk madaniyatida o‘xshash jihatlar ko‘pligini qayd etish lozim. Masalan, o‘zbek tilidagi *musicha* nomi xalq dunyoqarashida Muso payg‘ambarga bog‘langan ilohiy qushni bildiradi (Muso→Musochi→musochi→musicha).

Turklar bu qushni *yusufchi* deb nomlaydilar, ya‘ni Yusuf payg‘ambarga nisbat beradilar (Yusuf→Yusufchi→yusufchi). Bu qush har ikki xalqda ham ilohiylashtirilgan. *Makkajo‘xori* nomida o‘zbek xalqi o‘simlikni Makka shahriga nisbat berib nomlagan bo‘lsa, turklar Misr nomiga ishora qilib “misir” tarzida nomlaydi.

Turk tilida “nisba”, “mansab-martaba” ma‘nosidagi *amir* leksemasi ham qayd etilgan so‘zlar bilan shakliy bir xillik hosil qiladi: *emir III*. Araplarda ve daha başka Müslüman ülkelerde bir kavım, şehir veya ülkenin başı; “amir”. Hozirgi vaqtda iste‘moldan chiqqani, arxaiklashgani bois qayd yuqoridagi so‘zlar qatorida qayd etilmagan.

O‘zbek tilidagi *qism* “bo‘lak, parcha”, *qisim* “hovuch” paronimlari turk tilida bir xil shaklda yozilib, omonimik munosabatga kirishadi:

kısım I parçalara ayrılmış bir şeyin her bölümü, bölüm, kesim; qism; qism;

kısım II avuç; “qism, kaft”.

O'zbek tilida narsa-buyumning yonlama hajmini bildiruvchi *en* so'zi omonimik munosabat hosil qilmaydi. Turk tilida *en* shaklida uch tarkibli omonimik qator mavjud:

O'zbek va turk tillaridagi fonetik farq omonimlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan: **en I** bir yuzeyde boy sayılan iki kenar arasındaki uzaklık, genişlik, boy, uzunluk karşıtı; “yonlama hajm”; **en II** hayvanlara veya eşyaya vurulan damga, işaret; “hayvonlar yoki buyumlarga qo'yiladigan tamg'a”; **en III** başına geldiği sıfatların üstün derecede olduğunu gösteren kelime; “eng; “juda” ma'nosidagi ravish leksema; **kisas I** bir suçluyu, başkasına yaptığı kötülüğü kendisine aynı biçimde uygulayarak cezalandırma; “qasos, o'ch” – **kisas II** kıssalar, hikâyeler, öyküler “qissalar”.

Turk tilidagi “hayvonlar yoki buyumlarga qo'yiladigan tamg'a” ma'nosidagi **en II** leksemasi o'zbek tilida mavjud emas, turkiy tillarning qadimgi davrlariga xos arxaik birlik sanaladi. “Eng” ma'nosidagi **en III** omonimi o'zbek va turk tillari o'rtasidagi fonetik farq asosida yuzaga kelgan.

Qo'y I omonimligi o'zbek tilida ot va fe'l doirasida kuzatiladi: **qo'y I** “hayvon” – **qo'y II** fe'l. Turk tilidagi omonimik qator denotat jihatidan farqlanadi: **koyun I** geviş getirenlerden, eti, sütü, yapağısı ve derisi için yetiştirilen evcil hayvan (*Ovis aries*); “tuyoqli uy hayvoni, qo'y”; **koyun II** – kollar arası, kucak; “qo'yin, bag'ir”.

O'zbek va turk tillaridagi morfologik farq omonimik qatorlarning yuzaga kelishi uchun omil bo'lgan. O'zbek tilida bu mazmundagi omonimlik so'zlarning morfologik o'zgarishi natijasida yuzaga keladi: *qo'y+ni=>qo'yni* (qo'yni sotmoq) *qo'yin+i=>qo'yni* (*Qo'ynidan to'kilsa – qo'njiga*. Maqol).

O'zbek tilida so'z boshida jaranglilashish hodisasi turk tilida omonimlikni yuzaga keltiradi: **dar I** içine alacağı şeye oranla ölçüleri yetersiz olan, geniş ve bol karşıtı; “tor”; **dar II** idam mahkûmlarını asmak için dikilen direk; “dor”; **dar III** yurt; “makon”; **dar IV** ev; “uy”. Turk tilidagi “makon”, “uy” ma'nosidagi **dar III, IV** omonimlari aslida forsha-tojikcha bo'lib, hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydi, *dorulfunun, dor ul-baqo, dor ul-fano* kabi arxaik birliklar tarkibida uchraydi. O'zbek tilidagi “qisqa” ma'nosidagi **tor I** sifati “musiqa asbobi” ma'nosidagi **tor II** bilan omonimlik hosil qiladi.

O'zbek va turk tillaridagi bir xil shakldagi leksemalar omonimik qator uzvlari bilan farqlanadi. Masalan, turk tilida **kök I** bitkileri toprağa bağlayan, topraktaki besi maddelerini emmesine yarayan klorofilsiz bölüm; “ildiz, tomir” – **kök II** sazi

kurmaya yarayan burgu; mediator; “soʻz torlarini moslovchi; ohang chiqarish moslamasi” leksik birliklari omonimik munosabat hosil qiladi. Oʻzbek tilida bu maʼnodagi va shu shakldagi leksemalar kuzatilmaydi. Oʻzbek tilida **koʻk** leksemasi koʻp maʼnoli soʻz sifatida qayd etilgan: **Koʻk** 1. Tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori. 2. Kul rangidagi, kulrang. 3 s. t. Yashil, sabza. 4. Yer ustida gumbaz shaklida koʻrinib turadigan havo qatlami; osmon. 5. Oʻsayotgan oʻt-oʻsimlik, oʻt-oʻlan; maysa, koʻkat. 6. Bahorda yangi chiqqan, somsa, chuchvara kabi ovqatlarga ishlatiladigan otquloq, yoʻngʻichqa, jagʻjagʻ, ismaloq kabi koʻkatlarning umumiy nomi va shunday koʻkatlar qoʻshib tayyorlangan ovqat. 7. Kashnich, janbil, ukrop kabi ovqatga qoʻshib yeyiladigan rezavor oʻsimliklar, koʻkat. 8. s.t. (3-sh. birl. shaklida – *koʻki*) Dollar (OTIL,II,450). *Koʻk* leksemasining 1,4,7,8 bandlarda qayd etilgan maʼnolari ortasida aloqadorlik yoʻqolib, hozirda bu soʻzlar omonimik munosabat hosil qiladi. “Dollar” maʼnosidagi *koʻk* ijtimoiy (sotsial) chegaralangan qatlamga mansub boʻlib, shu shakldagi soʻzlar bilan mental omonimlik hosil qiladi.

Oʻzbek tilidagi **qitʼa I** “Yer sayyorasining qismlari” – **qitʼa II** “adabiyotdagi sheʼr janri” omonimligi turk tilida ham mavjud: **kita I sim, coʻgʻrafiya** yer yuzundeki altı büyük kara parçasından her biri, ana kara; “qitʼa” – **kita II edebiyat**. Dörtlük; “qitʼa, toʻrtlik”. Bu omonim leksemalar har ikki tilda ham koʻp maʼnoli soʻzning maʼnolari oʻrtasidagi yaqinlikning sezilmay qolishi natijasida yuzaga kelgan. Arab tilidan olingan “parcha”, “boʻlak” maʼnosidagi *qitʼa* soʻzining lugʻaviy maʼnosi “Yer sayyorasining qismlari” maʼnosida ham, sheʼr janrini bildirganda ham aks etadi. Turk tilida shu shakldagi *kita II askerlik*. Askerlerin bir komutanın emrinde bir araya gelmesinden oluşun birlik; “rota” soʻzi ham ishlatiladi.

Turk tilidagi quyidagi omonimik qatorlar oʻzbek tilida kuzatilmaydi:

